

“Avesto” asarida keltirilgan ayrim toponimlarning komponent tahlili

Maloxatoy Kaxramonovna Matniyazova
Urganch davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Avesto asaridagi ayrim toponimlarning bugungi kunda o‘zbek va ingliz tillaridagi shakli va ishlatilishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: hind-yevropa tillari, sanskrit tili, ingliz tili, Avesto, haraiti, tog‘, Elburs tog‘i, gairi

Component analysis of some toponyms given in “Avesta”

Malokhatoy Kakhramonovna Matniyazova
Urganch State University

Abstract: This article discusses the form and usage of some toponyms of Avesta work in the Uzbek and English languages.

Keywords: Indo-European languages, Sanskrit, English, Avesta, Haraiti, mountain, mount Alborz, Gairi

Bugungi kunda nutqimizda ishlatilib kelinayotgan ayrim so‘zlarning shakllanishida Avesto asarining ahamiyati katta. Ayniqsa hind - yevropa tillarida ko‘pgina so‘zlarning asosi ushbu asarda keltirilgan so‘zlar negizida kelib chiqqanini tahlil qilish orqali aniqlash mumkin. Avesto asarida bugungi kunda ishlatilayotgan nafaqat atoqli otlar balki oddiy turdosh otlarga ham duch kelish mumkin. Quyida Avesto asaridagi toponimlarga oid bir nechta so‘zlarning ingliz va o‘zbek tillaridagi o‘zgarishlarini ko‘rib chiqamiz.

Iran/Eron. Bugungi kunda janubiy - g‘arbiy Osiyodagi davlat. Ko‘plab manbalarda zardushtiylik dini qadimgi Eron davlati va uning hududlarida oriylar/eroniylar tomonidan shakllantirilgan deb keltiriladi [7,31]. Eroniy tillar hind-yevropa tillar oilasining hind-eron tarmog‘iga mansub tillarni o‘z ichiga oladi. O‘z navbatida bu tillarning shakllanishida bobo til sifatida Avesto asari yozilgan qadimgi xorazm tili va sanskrit tili asos bo‘ladi. Bundan kelib chiqadiki, zardushtiylik dini qadimgi Movaraunnahr hududida paydo bo‘lgan [20,53]. Avesto asarida *arya/ariya/airyō/aria* so‘zlari keltirilib, ularning barchasi Eron so‘zining shakllaridir. Shu bilan bir qatorda eronlik yoki oriy ma’nolarini ham anglatadi, *aria* - *oliy tabaqadagi inson*, *arya* - *hukmdor*, *aria* - *eronlik* [10,85] ma’nolarini anglatadi. Bu

soʻzlarning kelib chiqishi bilan bogʻliq 2 xil tahmin mavjud: 1) yuqoridagi soʻzlarning oʻzagi *ari - begona, notanish, kelgindi* degan maʼnoni anglatadi [14,222] va bu qadimda Hindistonni birinchi bor istilo qilgan eronliklarga nisbatan ishlatilgan [21,216]. 2) *arya - xoʻjayin, mehmondoʻst uy egasi, hukmdor, yuqori tabaqadagi* [14,222] maʼnolarini anlatgan va joyga nisbatan ishlatilib, shu yerlik aholini ham bildirgan. Eron soʻzi Avseto asaridagi *art-arân/arân/airyana* → Sanskrit tilida *āryas* → qadimgi fors tilida *aria* → lotin tilida *ariāna* → nemis tilida *arisch* → ingliz tilida *Aryan/Iran* → oʻzbek tilida *Eron* [5,53] tarzida shakllangan.

Place/Oʻrin. Bugungi kunda ingliz tilida oʻrin, joy maʼnolarini ifodalovchi *place, space, room* soʻzlari mavjud. Avesto asaridagi *asangh/asah* soʻzlari *oʻrin-joy, hudud* [16,219] maʼnosini anglatgan. Ular Sanskrit tilida *āsā/oriy. ācas -yemoq* soʻzlaridan hosil boʻlgan deb tahmin qilinadi [14,241], ammo keltirilgan soʻzlar Avesto tilining oʻzida ham mavjud boʻlgan va *oziq-ovqat* [1,117] degan maʼnoni bildirgan. Boshqa tillarga oʻzlashish jarayonida quyidagicha oʻzgarishlarni qiyoslash mumkin: Avestoda *asa/asah* → qadimgi oriy tilida *ācas* → Sanskrit tilida *stā* → qadimgi ingliz tilida *spe(i)/spē* → lotin tilida *spēs/spatium* → ingliz tilida *space* [5,700]. Oʻzbek tilidagi oʻrin-joy soʻzlari *asangh* soʻzidan emas, balki qadimgi turkiy tilidagi *or - joyla* soʻziga -(u)n qoʻshimchasini qoʻshish bilan yasalgan [18,487], eski turkiy tilida *or/orun* - uygʻur tilida *ordu/ortu* - qoraqalpoq tilida *orun/otra* - oʻzbek tilida *orin/orda/orta* [11,1062].

Mount Alvand/Alvand togʻi. Alvand togʻi Eronning gʻarbida joylashgan Zagros togʻining bir qismi. Bu nom Avesto asarida kelgan *aurvañt* soʻzidan kelib chiqqan va aslida «tezkor, shiddatli [8,18]» maʼnolarni anglatgan. Bundan tashqari bu soʻzning *aurva/aurvant/aourvant* kabi shakllari ham mavjud. Bu soʻz qadimgi hind/sanskrit tilida *árvan/árvant*, oriy. *aryant/aryat*, qadimgi fors tilida *arwand* [14,194], oʻzbek tilida Alvand tarzida shakllangan. Ammo ingliz tilida shakllanishini tahlil qilsak, bu soʻzning ikki xil tarzda oʻzgarishiga guvoh boʻlish mumkin. Birinchi shakli Avrand soʻzidan *alvand* shaklining hosil boʻlishi va ikkinchi, qadimgi skandinaviya tilida *orr* → fransuz tilida *evre* → fin tilida *arvō/arvā* [6,931] → lotin tilida *ariri* → ingliz tilida *orient/arrow* [1,126] kabi.

Berg/Togʻ. Avesto asarida togʻ soʻzining turli variantlari mavjud. Shulardan biri *barezahi/barezangh/barezayâ/barezâ - balandlik, togʻ* shaklidir. Ingliz tilida ham togʻ soʻzini ifodalovchi *berg/mountain/mount/hill/cliff* soʻzlari mavjud va ular togʻ, uning qismlarini bildiradi. Barezahi soʻzi *brz,barz,brza,brzat,bæræz* oʻzaklaridan kelib chiqqan boʻlib, ular soʻzning sifat (*baland/ulkan*) [16,228], *bæræzant, baræzan/baræzah* esa ot (*balandlik*) [6,384] shaklidir. Ingliz tilidagi *berg* soʻzining shakllanishida *barez/brza* soʻzlari qadimgi yevropa tillariga *bheregh/ bhergho* tarzida oʻtgan va uels tilida *bera/bry* → irland tilida *bri/brig* → qadimgi ingliz tilida *beorh/beorg* → nemis tilida *berg* → ingliz tilida *berg* [6,385] boʻlib shakllangan.

Ammo o'zbek tilidagi tog' so'zi qadimgi turkiy tildan kirib kelgan. Qadimgi turkiy tilda *ta:g/dāg* → uyg'ur tilida *tay* → qoraqalpoq tilida *tay* → o'zbek tilida *tay* → qoz. *taw* [11,1359] tarzida o'zgarishni ko'rish mumkin. Bugungi kunda Xorazm viloyatining Gurlan, Yangibozor tumanlarida tog' so'zini *tav* tarzida talaffuz qilish saqlanib qolgan [17,84].

Country/Davlat. *Dahyu/dainghu/dahyav* so'zlari *davlat, mamlakat, vatan* [8,31] ma'nolarini ifodalab keladi. Bular davlat so'ziga aloqador boshqa so'zlarning yasalishida asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, dainghu-frâdhana, dainghu-paiti, dâh'yuma kabilar. Qadimgi fors/pahlaviy tili Avesto asari va uning tilining keng yoyilishida katta ahamiyatga ega, chunki asarda keltirilgan so'zlar va pahlaviy tilidagi so'zlar solishtirilganda ularning katta ko'pchiligi deyarli bir xil ekanligini va bugungi kunda kam o'zgarishga uchraganini payqash mumkin [12,1151]. Sanskrit tilida *dāsyu* → oriy tilida *dāsiu* → so'g'd tilida *dyx'w, dyxw/δixāu* (*qishloq*) → eski fors tilida *dahyu/dahyav* → pahlaviy tilida *dahyū, dih/deh* → fors tilida *dih* [14,287]. Ammo bugungi o'zbek tilidagi davlat so'zi arabcha davlat(un) shakliga ega va so'z yasalishida bog'liqlik yo'qolgan. Avestoda *dahyu* → pahlaviy tilida *deh* → fors tilida *deh/dihkân* → tojik tilida *deh/dehqon* → fors tilida *dehyān/dehgan* [14,287-288] → o'zbek tilida *dehqon* shakllarida esa bog'liqlik mavjud. Ingliz tilida davlat so'zi lotin tilida *contra/contrata* → fransuz tilida *cuntree/contree* → qadimgi ingliz tilida *contree* → ingliz tilida *country* so'zlaridan hosil bo'lgan. Bu orqali davlat so'zining paydo bo'lishida yevropa tillari va sharq tillari o'rtasida bog'lanish yo'qligini ko'rish mumkin. Dâh'yuma/dahyuma - *dahyu* (*davlat*)ga tegishli yoki yana bir manbada *yerlar/davlatlar xudosi nomi, Dahyuma xudosa tegishli*.

Dainghu-frâdhana esa *davlat rivoji/rivojlanishi* [8,31] degan ma'nolarni bildiradi deb keltiriladi. Dainghu-paiti - davlat boshlig'i/rahbari birikmasining Avestoda *dahyu pati, daiñhupaite, dahju-pati, daiñhu-patay*, qadimgi fors tilida *dahyupati, dahyupat/dahyūpat, dahibed* [14,235;16,287] kabi shakllari mavjud bo'lgan. Birikma tarkibidagi paiti so'zining kelib chiqishiga to'xtaladigan bo'lsak, u Avestoda *pa - himoya qilmoq* o'zagidan hosil bo'lgan va *patiy, pavan, pâna - xo'jayin, boshliq, rahbar, er* [1,349] shakllari mavjud. Qiziq tomoni, *pa - himoya qilmoq* ma'nosidan Avestodagi *pathra-himoya*, himoya qiluvchi ma'nosida *pitar-ota*, forscha-*pedar/padar* va inglizcha-*father* [1,349] so'zlari kelib chiqqan.

House/Uy. *Dâman* Avesto asarida *uy* ma'nosini ifodalaydi va shu bilan birga bu so'zning turli variantlari va tarjimalari uchraydi. Jumladan, *dm/dam/dami/dmāna/nmāna* [14,324] shakllarining barchasi uy ma'nosini anglatgan. Bu so'zning tarqalish jarayonida yevropa tillarida o'zgarish kam bo'lib, asos saqlanib qolganini ko'rish mumkin. Avestoda *dam* → Sanskrit tilida *dām/dāma* → grek tilida *δόμοϛ/dmōu* → lotin tilida *domus* → fransuz tilid *dome* → ingliz tilida *dome* [9,128] tarzida shakllanib bugungi ingliz tilida paydo bo'lgan. Ammo aslida *dome* so'zi

bugungi kunda *gumbaz*, *qubba* ma'nosini anglatadi. Ammo dastlab *uy*, *mino*, *cherkov* ma'nolarini anglatib, house so'zi ham shu ma'nolarda ishlatilgan va house uchun dome so'zi asos bo'lgan [5,225]. Demak Avestodagi dam va ingliz tilidagi house/dome so'zlarida o'zaro bog'liqlik saqlanib qolgan. Ammo o'zbek tilidagi uy so'zining shakllanishida bunday deya olmaymiz. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan *uy* so'zi *öy* tarzida talaffuz qilingan, o'sha davrlardayoq *üy* tarzida ham talaffuz qilingan, o'zbek tilida ü unlisining yumshoqlik belgisi yo'qolgan [18,282]. Bugungi kunda turk tilida ev va Xorazm viloyatining Xiva, Urganch, Xonqa va Xazorasp tumanlarida, deyarli barcha jaylarida bu so'zning *öy* tarzida talaffuz qilinishi saqlanib qolgan [17,72].

Gairi. Avesto asarida keltirilgan tog' ma'nosini bildiruvchi yana bir so'z. Umuman olganda, Avesto asarini o'rganib undagi so'zlar tahlil qilinganda bir xil ma'noli ammo turli shakllardagi ko'plab so'zlarga duch kelish mumkin. Yuqorida tog' so'zining boshqa bir shakli keltirildi va gairi ham tog' ma'nosini bildiruvchi navbatdagi so'zdir. *Gari/garai/garay/giri* so'zlari gairi so'zining turlicha shakllari hisoblanadi va ular Avestoning o'zida va boshqa tillarda ham shu shakllarda uchraydi. Garay va gairi Avesto asarida kelgan, Sanskrit tilida giri, qadimgi fors tilida gar, gari, gri shakllarida uchraydi. Garai so'zining ko'plik shakli garayô - tog'lar va garôish - tog'ga oid, tog' ya'ni so'zning sifat shaklidir. Bu so'z yevropa tillariga gwer/gwor shaklida o'tib, rus tilida gora (ropa) so'zi mavjud. Bu so'z qadimgi slavyan tilida Čurvatínŭ, fransuzcha chorwat va ingliz tilida Croatia [1,181] so'zining yasalişida asos bo'lgan, gairi so'zi bilan bog'liq boshqa so'z yasalmagan. O'zbek tilida ham gairi so'zi asosida yasalgan so'z mavjud emas, ammo turkcha *kir*, turkman tilida *gir*, qoraqalpoq tilida *qir*, uyg'ur tilida *qir*, o'zbek tilida *qir* shu so'z asosida yasalgan degan tahmin mavjud. Qir so'zi aslida "yassi tog', baland tekislik" ma'nolarini anglatadi, dastlab qir shalida talaffuz qilingan bo'lsa keyinchalik i unlisi o'zining qattiqlik belgisini yo'qotib i tarzida talaffuz qilina boshlangan.

Hill/Ko'h. Tog' ma'nosini bildiruvchi so'zlardan yana biri, Avesto asarida keltirilgan *kaofa* - tog', *tepalik*, *tog' tizmasi* so'zidir. Avesto asarida *kaofa* shaklida, qadimgi fors tilida *kaufa* shaklida bo'lgan. O'rta asrlar fors tilida *kōf* shaklida bo'lib, f tovushi h tovushiga almashishi natijasida *kōh/kūh* tarzida iste'molda bo'lgan [15,371]. Boshqa tillarda ham deyarli shu shaklda qo'llanilgan, masalan tojik tilida *kūh* tarzida bo'lgan. Eski o'zbek adabiy tili matnlarida ko'h/kuh shaklidagi Ko'hi Qof birikmasi uchraydi. Bu ham Avesto asosida paydo bo'lib fors tili orqali bizning tilimizga kirib kelganini anglatadi. Kaofa so'zi *tuya o'rkachi* ma'nosini ham bildirgan, tepalik kabi ajralib chiqib turgani sababli shu sifati asosida ma'no ko'chishi sodir bo'lgan deb tahmin qilinadi. Ammo so'zning bu ma'nosida shakl o'zgarishi sodir bo'lgan, ya'ni kaufa/kaofa dan pushtu tilida *kaupa*, *kupáy*, *kopān*, fors tilida *kōha*, *kōhān*, *kōhab* [15,372] shakllari kelib chiqqan. Bir so'z asosida ikki xil

ma'noni bildiruvchi ikkita so'z hosil bo'lgan. Kaofa so'zining yevropa tillariga o'zlashish jarayonida o'zgarishlar sodir bo'lgan. Bunda *keup/kolhn* shaklida o'zlashib, keyinchalik qadimgi litva tilida *kálnas*, lotin tilida *collis*, qadimgi gotlar tilida *hallus* va qadimgi ingliz tilida *hyll* shakliga kelgan [9,124]. Bugungi kunda ingliz tilida hill tarzida ishlatiladi. Demak Avesto asaridagi kaofa so'zi bugungi kunda ingliz tilida ham o'zbek tilida ham asos sifatida xizmat qiladi va butunlay yo'qolib ketmagan.

Alborz/Elburs tog'i. Avesto asarida bu tog' haqida keltirilgan bo'lib, u Aryan yurtining janubida joylashgan tog' yoki tog' tizmasi deya tasvirlanadi [7,538]. Bugungi kunda u haqda Eronning janubida joylashgan tog' tizmasi deya ma'lumot keltiriladi. Bu tog' bir nechta nom bilan keltiriladi. Avesto asarida haraiti, haratī, harayā, hara, Hara-bērēzaiti kabi nomlar bilan atalgan va ushbu tog'ning nomi ulug'lanib unga sig'inishlari haqida, u barcha tog'larning asosi bo'lganligi haqida alqov keltiriladi. Bu nomlarning hammasi *hrz*, *har* - *qo'riqlamoq*, *g'amxo'rlik qilmoq*, *himoya qilmoq* o'zagidan yasalgan. Hara-bērēzaiti so'zidan o'rta asr fors tilida *harburz*, yangi fors tilida *alburz*, ingliz tilida *alborz* tarzida shakllangan va o'zbek tilida ham bugungi kunda shu shaklda yoki *Elburs* tarzida iste'molda bo'lib kelmoqda [16,255]. Bundan tashqari *har* - himoya qilmoq o'zagi yevropa tillariga *ser* tarzida o'tgan va boshqa bir so'zning yasalişiga ham xizmat qilgan. Haraiti so'zining haurva - himoya qilish shakli ham bo'lib undan lotin tilida *servāre*, grek tilida *servō/servūre*, grek tilida *heros*, *heracles* va ingliz tilida *hero*, *Hercules* [1,416] so'zlari yasalgan. Birinchi so'z oddiy turdosh ot va ikkinchi so'z esa atoqli ot turkumiga kiradi. Mening fikrimcha, bu yerda tog'ning butun bir o'lkani. xalqni himoya qilishiga ishonilib shu sifat ilohga ko'chirilgan bo'lishi mumkin. Hara so'zi ham *hrz*, *har* - *qo'riqlamoq*, *g'amxo'rlik qilmoq*, *himoya qilmoq* o'zagidan yasalgan ammo *munchoqlar ipi/shodasi* degan ma'noni bildiradi. Bu ham Elburs tog'iga berilgan sifatlardan biri. Bu tog' tizmasi nomini anglatgani uchun yevropa tillariga lotin tilida *serere*, fransuz tilida *seri*, ingliz tilida *series* - *bir qator*, *ketma-ketlik* [1,416] ma'nosi bilan ko'chgan. Demakki, Haraiti so'zi bugungi kunda boshqa shaklda mavjud va yo'qolib ketmagan, undan tashqari boshqa so'zlarning asosini ham tashkil qiladi.

Hukairya. Avestoda *hukairya*, pahlaviy tilida *hukar*, *hugar* tarzida keltirilgan yana bir tog' yoki cho'qqi nomi. Bundan tashqari bu cho'qqi pahlaviy tilida ČAGĀD Ī DĀITĪ - qonun cho'qqisi (summit of the law) nomi bilan ham atalgan. Avesto asarida Hukairya tog'idan yoki Hara-bērēzaiti tog'ining cho'qqisi Hukairyadan Adervi sura daryosiga suvlar oqib tushadi deya keltiriladi. Hukairyaning aynan tog' emas, cho'qqi ekanligi to'g'risida bir nechta manbalarda keltiriladi va yuqorida keltirilgan fikr ham Irano Aryan faith and doctrine as contained in the Zend Avesta kitobida keltirilgan. Bu so'zning tarkibi ikkita o'zakdan tashkil topgan: hu va

kr/kāraya. *Hu - yaxshi* va *kr/kāraya - qilmoq, bajarmoq* bo‘lib, birgalikda “ezgu amal/ish” [16,277] (of good activity) ma’nosini bildiradi. Ya’ni haybatli Hukar cho‘qqisidan oqib tushgan suv butun yurtga suv ulashadi degan ma’no tushunilishi mumkin. O‘zbek tilida bu nomning aniq tarjimasi ilmiy manbalarda uchramagani sababli bu so‘zni pahlaviy tilidagi hukar tog‘i shaklida ishlatilishi o‘rinli deb o‘ylayman.

Karshvare. Avestoda *karšvarə* tarzida kelgan toponim so‘zlardan yana biri, *yer, iqlim, mintaqa, makon, yerning bir qismi* degan ma’nolarni bildiradi va o‘rta asrlar fors tilida *kišwar*, tojik tilida *kišvar*, zamonaviy fors tilida *kešvār/kešvar* [15,307] bo‘lib ishlatilgan. Bu qiyoslash orqali shuni ko‘rish mumkinki, karshvare so‘zi eroniy tillarga o‘zlashish jarayonida deyarli o‘zgarishga uchramagan va shu holda iste’molda bo‘lib kelmoqda. Kishvar so‘zi Avestoda zardushtiylarning butun dunyo haqidagi tasavvurlarini ifodalaydi, ya’ni ular butun dunyo yoki Aryan yerlari yetti muqaddas makondan tashkil topgan deb hisoblaganlar va har bir makonga/kishvarga nom berganlar. Ushbu 7 kishvar turli ilohlar tomonidan boshqariladi deb ishonilgan. O‘zbek tilida ham bu so‘z mavjud bo‘lib, ko‘pincha eski o‘zbek adabiy matnlarida uchraydi. Viloyat, o‘lka, mamlakat ma’nolarini anglatib fors-tojik tillaridagi shakli orqali o‘zbek tiliga o‘zlashgan [22,379].

Yetishdi bu go‘zal kishvarda Bobur

Bo‘lib so‘z ustasi, san‘atli shoir (Habibiy)

Zañtu. Bu so‘z Avestoda *qabila, irq, viloyat* kabi ma’nolarni anglatgan. Uning o‘zagi *zan - tug‘moq, tug‘ilmoq* so‘zidan hosil bo‘lgan, ya’ni bu yerda insonlarning bir ajdoddan tug‘ilib tarqalishi orqali ular keyinchalik bir qabilaga aylanishi nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin. Zantu so‘zining *zantav* shakli ham mavjud bo‘lib, u *tuman, viloyat, maydon* ma’nolarini bildiradi va qabilaga nisbatan ishlatiladi. Bu tushuncha pahlaviy tilida *zand* shaklida, Sanskrit tilida *jantu* tarzida ishlatilgan va *mavjudot, insoniyat, odamlar* ma’nolarini bildirgan [10,338]. Hind-yevropa tillarida qabila, odamlar tushunchasi *ġen, ġenə, ġnē, ġnō* so‘zlari bilan, ya’ni lotin tilida *gēns*, qadimgi ingliz tilida *gecynd* tarzida ifodalangan [6,1178] va bundan ko‘rish mumkinki zantu so‘zi yevropa tillariga o‘zlashmagan. Yevropa tillarida ham turkey tillarda ham zantu so‘zi iste’molda chiqib ketgan va ularning ma’nolari turli tillarda boshqa so‘zlar bilan ifodalangan. Zantu so‘zining ma’nolarini va ularning shakllanishini tahlil qilsak, o‘zbek tilida qabila va ingliz tilida *tribe* so‘zlariga duch kelamiz. Qabila arabcha *qabilat(un)* so‘zidagi t tovushini tashlab qabul qilingan va kishilarning sinfiy jamiyat yuzaga kelmasdan oldingi ijtimoiy birlashmasi deya ta’riflanadi [19,518]. Ingliz tilidagi *tribe* so‘zini tahlil qilsak, lotin tilidan *tribus*, qadimgi ingliz tilida *tribu* bo‘lgan.

Yuqoridagilardan xulosa qilishimiz mumkinki, bugungi kunda “Avesto” bilan bog‘lanadigan ko‘plab avestizmlar tilimizda mavjud. Ularning etimologik va

geniologik tahlilini amalga oshirish orqali noyob faktlarni aniqlash mumkin. Ular o'zbek tili tarixiy leksikasiga oid etimologik lug'atlarni tuzishda va ularni boyitishda qo'l kelishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ali Nourai. An Etymological Dictionary of Persian, English and other Indo-European Languages.
2. A. V. Williams Jackson. Avesta reader first series easier texts, notes, and vocabulary. New York: Stuttgart W. Kohlhammer 1893.
3. C.T.Onions, G.W.S.Friedrichden, R.W.Burchfield. The Oxford dictionary of English etymology. – Oxford: Clarendon Press, 1982.
4. Christian Bartholomae. Altiranisches wörterbuch. – Strassburg: verlag von Karl J. Trübner, 1904.
5. Dr. Ernest Klein. A Comprehensive Etymological Dictionary of the English Language Unabridged, One-Volume Edition. - Amsterdam, The Netherlands: Elsevier Science, 1971.
6. George Starostin, A. Lubotsky. A Revised Edition of Julius Pokorny's. Proto-Indo-European Etymological Dictionary. Dnghu Association, 2007.
7. Irano Aryan faith and doctrine as contained in the Zend Avesta.
8. Joseph H. Peterson. Dictionary of most common AVESTA words. Copyright 1995.
9. Michiel de Vaan. Etymological Dictionary of Latin and the other Italic Languages. – Boston, 2008.
10. Monier Williams, M.A. A Sanskrit-English Dictionary. – Oxford: The Clarendon Press.
11. S. A. Starostin, A. V. Dybo, O. A. Mudrak. An Etymological Dictionary of Altaic Languages.
12. Ulaş Töre Sivrioğlu. Avesta Dilinin Tarihi Coğrafyası./ Turkish Studies. Volume 8/8, 2013.
13. Václav Blažek, Michal Schwarz. The Early Indo-Europeans in Central Asia and China. – Innsbruck, 2016.
14. В.С.Расгоргуева, Д.И.Эдельман. Этимологический Словарь Иранских Языков, Том 1. – М: Издательская Фирма «Восточная Литература» Ран, 2000.
15. Д.И.Эдельман. Этимологический Словарь Иранских Языков, Том 4. – М: Издательская Фирма «Восточная Литература» Ран, 2011.
16. С. Н. Соколов. Язык Авесты. – Издательство Ленинградского Университета, 1964.
17. Ф.А.Абдуллаев. Ўзбек тилининг хоразм шевалари I луфат. II Хоразм шеваларининг таснифи. – Т.: Ўзбекистон фанлар академияси нашриёти, 1961.

18. Шавкат Рахматов. Ўзбек тилининг этимологик луғати I (туркий сўзлар). – Т: “Университет”, 2000.
19. Шавкат Рахматов. Ўзбек тилининг этимологик луғати II (араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар). – Т: “Университет”, 2003.
20. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси З ҳарфи. – Т: Давлат илмий нашриёти.
21. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси О ҳарфи. – Т: Давлат илмий нашриёти.
22. Ўзбек тилининг изоҳли луғати 5 жилдли. II жилд. – Т: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2006.